

## O'QUVCHILARNING HUQUQIY BILIMLARINI SHAKLLANTIRISHDA UMUMTA'LIM MAKTABLARIDAGI AYRIM MUAMMOLAR.

*Ahmadov Sabridin Bahodir o'g'li*

*ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti*

*ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi*

*(huquq ta'limi) magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida o'quvchilarning huquqiy bilimlarini shakllantirishdagi muammolar haqida so'z boradi. Shuningdek, bu muammolarni bartaraf etish haqida ayrim fikr va mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so'zlar.** Huquq, huquqiy tafakkur, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, motivatsiya, interfaol metodlar, samarali ta'lim.

Bugungi globalashuv jarayonida jamiyat taraqqiyoti, farovon va adolatli davlat qurish ko'p jihatdan fuqarolarning huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyati darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Taraqqiyparvar, olim, shoir va tarjimon Elbek "Millatning najoti — maktabda, muallimda" deb ta'kidlagani bejizga emas. Maktab har zamonda millat va davlat kelajagi deb qaralgan. "Adolatli va yetuk, komil jamiyatni faqatgina komil insonlarni tarbiyalash orqali qurish mumkin"[1]. Yosh avlodni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularni fuqarolik jamiyati tamoyillariga mos holda shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli yosh avlodni tarbiyalashni umumta'lim maktablarida huquq fanini o'qitishdan boshlash zarur. "Maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta'sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko'rsatadi"[2]. Huquq fanining mohiyatini anglash dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchi yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish orqali ularda huquq tafakkurni shakllantiri muhimdir. Shu o'rinda ta'kidlash o'tish joizki, bu bilimlarni egallashda o'quvchilar bir qancha

qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu muammolar nimalardan iborat va ularning bartaraf etish bo'yicha qanday tavsiyalar mavjud?

Huquq fanining asosiy vazifasi o'quvchilarda huquqiy ong, huquqiy tafakkur va qonunlarga hurmat tuyg'usini shakllantirishdan iborat. Biroq hozirgi kunda amaliyotda huquq fanini o'qitish jarayonida bir qator muammolar kuzatilmoqda. Bu muammolar ta'lim sifati, darsliklar, metodika va o'qituvchilarning malakasi, shuningdek, o'quvchilarning motivatsiyasi bilan bog'liq muammolar hisoblanadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, huquq fanini samarali o'qitish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Quyidagi muammolarni birma-bir tahlil qilib chiqamiz. Huquq fanini o'qitishdagi asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

O'quvchilarda huquqiy bilimga qiziqishning pastligi huquqiy bilimlarni egallashga to'siq bo'layotgan eng muhim sabablardan biridir. Ko'plab maktablarda o'quvchilar huquq fanini nazariy fan sifatida qabul qiladi. Darslar ko'pincha faqat qonun, moddalar va tushunchalarni, shuningdek, o'quvchilar uchun murakkab bo'lgan yuridik terminlarni yodlash bilan cheklanib qoladi. Buning natijasida o'quvchilar huquqni hayot bilan bog'lay olmaydi. Shu bilan birga ularda amaliy ko'nikmalar shakllanmaydi, huquqiy tafakkur rivojlanmaydi. Huquqiy ta'limning asosiy maqsadi esa o'quvchilarda huquqiy madaniyat va qonunlarga ongli munosabatni shakllantirishdan iborat bo'lib, hayotiy vaziyatlarda bularni qo'llay olishlari kerak.

Darslik va o'quv qo'llanmalarining yetarli darajada mukammal emasligi hozirgi vaqtda ham muammoligicha qolmoqda. Maktab darsliklari avvalgi darsliklarga qaraganda soddalashtirilgan bo'lishiga qaramasdan, ayrim mavzular bo'yicha qiyinchiliklar mavjud bo'lib, ular o'quvchilar uchun murakkab tilda yozilgan. Nazariy ma'lumotlarga urg'u berilganligi real hayotiy vaziyatlar bilan boshliq bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli o'quvchilar qonunlarni kundalik hayot bilan bog'lashda qiyinchilikka duch keladi.

Pedagogik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, ta'lim samaradorligi o'quv materialining o'quvchi yoshiga mosligi bilan bevosita bog'liqdir [3]. O'quvchi qiyin bo'lgan yuridek atamalarni tushunishga qiynalishi tabiiy holat. Shuning uchun ularni hayotiy vaziyatlar

bilan sodda tilda, o'quvchi yoshiga mos qilib tushuntirish zarur.

O'qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emasligi ham bugungi huquq fanlarini o'qitishning murakkablashtiradi. Huquq fanini samarali o'qitish uchun o'qituvchi nafaqat huquqshunoslikni, balki pedagogika va metodikani ham chuqur bilishi kerak.

Dars jarayonida interfaol metodlardan kam foydalanish, muammoli ta'lim usullarini qo'llamaslik, darslarda bahs-munozara tashkil etilmasligi o'quvchilarga fanga bo'lgan qiziqishini pasayishiga va ta'lim jarayonida ularning yangi bilimlarni egallashiga juda katta salbiy ta'sir qiladi. "Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'qituvchi hamda ta'lim oluvchilar o'rtasidagi o'zaro faollikni amalga oshirish orqali o'zlashtirishni faollashtirish, shaxsiy sifatlarni rivojlantirish va samaradorlikni oshirishga yordam beradigan usul"[4]. "Interfaol ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li sifatida e'tirof etilayotgan ta'lim turi va o'qitish shakli sanaladi"[5]. Shu sababli interfaol ta'limni tizimli ravishda tashkil etish o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini yo'qolmasligini ta'minlaydi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvga ko'ra, huquq fanini o'qitishda, case, rol o'yinlari, sud jarayoni modeli, munozara metodlari kabi usullar samarali hisoblanadi.

Amaliy mashg'ulotlarning yetarli emasligi ham jiddiy muammolar biridir. Huquq fanini o'qitishda amaliy mashg'ulotlar muhim ahamiyatga ega. Lekin ko'plab maktablarda sud jarayonlari simulyatsiyasi, huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni yechish kabi usullar kam qo'llaniladi. Natijada o'quvchilar nazariy bilimga ega bo'lsada, huquqiy vaziyatlarda qanday harakat qilishni bilmaydi. Bu muammoni bartaraf etish uchun o'quvchilar uchun qo'shimcha amaliy mashg'ulot darslarini tashkil etish kerak. Odatiy vaziyatlarda o'tilgan mavzuni takrorlab olish va yanhi mavzu bayonidan so'ng yetarli vaqt qolmaydi. Natijada amaliy mashg'ulotlar har doim ham tashkil etilmaydi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanishning yetarli emasligi juda ko'p maktablarda huquq fanlarini o'qitishda muammolarni keltirib chiqaradi. Bu muammolar ayniqsa chekka hududlarda joylashgan maktablarda kuzatiladi. Zamonaviy ta'lim tizimi raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq. Ammo ayrim maktablarda huquqiy video materiallar, elektron darsliklar, interaktiv platformalar kam qo'llaniladi. Bu esa darslarning qiziqarli va samarali bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Maktab darsliklarida elektron vositalar

orqali topshiriqlar, yoki bo‘lmasa kerakli ma’lumotlar keltirilgan. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, texnologiyalar bilan ta’minlanganmagan maktablarda o‘quvchilar bu topshiriq yoki vaziyani o‘zlashtira olmay qoladi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan muammolar bartaraf etish va huquqiy ta’limni rivojlantirishning bir qancha yo‘llari mavjud:

Interfaol pedagogik metodlarni joriy etish, ya’ni, huquq fanini o‘qitishda quyidagi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi:

Case study - huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish va o‘quvchilarning o‘zlari mustaqil xulosa qila olishi hisoblanadi.

Sud jarayoni rolli o‘yini - bu metod orqali ma’lum bir vaziyatni o‘quvchilar o‘yin orqali muhokama qiladi. Ular sud jarayoni va unda sodir bo‘ladigan vaziyatni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib shu jarayonda ishtirok etadi. Bu o‘yin shaklida bo‘lsa ham o‘quvchilarning dars jarayonidan zerikib qolmasligi va bu vaziyatda huquq bilimdonlari qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Munozara va debatlar - bu jaroynda o‘quvchilar ma’lum bir huquqiy muammo ustida munozara olib boradi. O‘qituvchi nazorati ostida yuridik faktlar, o‘z fikrini tasdiqlangan uchun dalillar keltiradi.

Muammoli ta’lim - bu metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va huquqiy tafakkurini rivojlantiradi.

Huquqiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan tadbirlar ham o‘quvchilarda huquqiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Jumladan, “Konstitutsiya kuni” tadbirlari, huquqshunoslar bilan uchrashuvlar, sud jarayonlariga ekskursiya, huquqiy viktorinalar kabi amali jarayonlar o‘quvchilarda huquqiy ongini shakllantirishga juda katta yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda umumta’lim maktablarida huquq fanini o‘qitish yosh avlodning huquqiy madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq bu jarayonda bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular ta’lim metodikasi, o‘quv materiallari, o‘qituvchilarning malakasi va o‘quvchilarning motivatsiyasi bilan bog‘liqdir. Bu muammolarni hal etish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, amaliy

mashgʻulotlarni koʻpaytirish zarur. Shuningdek, oʻqituvchilarning malakasini oshirish, darsliklarni takomillashtirish, yangi metodikalar orqali dars jarayonlarini qiziqarli tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Shu orqali oʻquvchilarda yuksak huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. Toshkent – 2021. 421-bet
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PF-5618-son Farmoni. Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. Lex.uz.
3. Xakimova Z.X. (2023) Maktablarda inklyuziv taʼlim muammolari <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/7490>
4. Sh.S.Shoyimova, M.K.Xoshimova, Sh.R.Mirzayeva, M.M.Qoʻziboyeva Taʼlim texnologiyalari – Darslik. – T.: “IJODPRINT”. 2020-yil, 259-bet
5. Z.F. SHAROPOVA, “TAʼLIM TEXNOLOGIYALARI” darslik. - T.: “Navroʻz” nashiryoti, 2019, 158-bet.
6. Kun.uz. Maktablarda Konstitutsiyani oʻrganish tadbirlari.